

Iroda Rahmonaliyeva

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi
1-kurs magistranti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy fors adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Faridun Mushiriy ijodining o'rganilish darajasi tahlil etiladi. Tadqiqotda shoirning hayoti va adabiy faoliyati bilan bir qatorda, asarlarining turli mamlakatlarda - Eron, Hindiston, Turkiya, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlarda qanday ilmiy yo'nalishlarda tadqiq qilingani yoritilgan. Xususan, Mushiriy ijodining romantizm, psixologizm, arxetipik, komparativ va ta'limiy-ilmiy yondashuvlar doirasida o'rganilganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Mushiriy ijodining soddaligi, insonparvarlik ruhidagi lirizmi hamda umuminsoniy qadriyatlarni kuylashdagi o'ziga xosligi yoritilgan.

Kalit so'zlar

Eron, Faridun Mushiriy, she'riyat, romantizm, psixologik tahlil, arxetip.

Faridun Mushiriy 1926-yil 23-sentabrda Tehron shahrida tug'ilgan. Shoirni tarbiyalagan oila madaniyat va adabiyot ahlidan edi. Onasi ham ba'zan she'r yozardi, ona tomonidan bobosi esa "Najm" taxallusi bilan ijod qilgan. Faridun Mushiriy bolalikdan Hofiz va Sa'diy Sheroziyning she'rlarini yoddan bilardi.

Adabiy faoliyatining katta qismi aynan "روشنفکر" jurnalida ishlagan davrlarga to'g'ri keldi. Shu yerda u fors adabiyotining ulug' namoyandalari Aliakbar Dehxudo, doktor Muhammad Muin va Nimo Yushij bilan tanishgan. Jurnalidagi she'riyatga bag'ishlangan sahifalar Faridunning sa'y-harakatlari bilan ancha jonlandi. Ko'pgina shoirlar, jumladan Furug' Farruxzod va Manuchehr Otashiy o'z she'rlarini ilk bor shu jurnalda chop ettirdilar.

Ma'lumki, Faridun Mushiriy zamonaviy fors she'riyatida salmoqli o'ringa ega bo'lib, xalqni yangicha uslub, yangicha ruh bilan tanishtirish yo'lini topgan edi. Uning mashhur "کوچه" ("Ko'cha") nomli she'ri ham shu jurnalda chop etilib, tez orada Eron zamonaviy adabiyotida o'chmas iz qoldirdi. Shoir yillar davomida Germaniya, AQSH va Shvetsiya kabi g'arb davlatlariga safarlar qilib, muvaffaqiyatli she'rxonlik davralarida ishtirok etgan.

Faridun Mushiriy she'rlarining eng muhim jihatlaridan biri soddaligi va ravonligidir. Shoir o'z fikr va g'oyalarini ochiq, tushunarli tarzda bayon etadi. Ifoda uslubi mubolag'a yoki sun'iy murakkablikdan, jimjimadorlikdan yiroq. Ana shu

tabiiylik va samimiylik tufayli Mushiriyning she'rlari xalq orasida sevimli bo'lib qolgan. Odmi, ravon, ammo yuksak va nafis she'r tili uning ijodiga o'ziga xos go'zallik baxsh etgan.

Shoir an'anaviy (klassik) she'r shakllarida ham, yangi — Nimo Yushij uslubida (erkin) ham ijod qilgan. Uning asarlari orasida ruboiy, qit'a va g'azallar bilan bir qatorda, zamonaviy erkin she'r namunalarini ham uchratish mumkin.

Shoir ijodining yana bir muhim xususiyati muhabbat, insonparvarlik va tinchlik g'oyalarini yuksak tarannum etganligidir. U she'rlari orqali insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat, do'stlik, tinchlik va muhabbatni ulug'laydi. Mushiriyni dunyo xalqlarining dardini his etadi, ularning quvonch-u tashvishlariga hamdard bo'ladi. U hech qachon she'rni siyosiy g'oya yoki firqalar manfaatlariga xizmat qildirishni yoqtirmagan. Mushiriyning e'tiqodi quyidagicha edi: erkin fikr, insoniy muhabbat va jamiyatga sidqidildan xizmat har qanday siyosiy oqim yoki mafkuraviy yo'nalishdan ustun turadi.

Eronning mashhur yozuvchisi, adabiyotshunos va tanqidchisi Abdulhusayn Zarrinkub Faridun Mushiriyni yangicha fikr va ijod yo'nalishiga ega shoir sifatida e'tirof etgan. Zarrinkubning fikricha, Mushiriyni o'z she'riy tili orqali soddalik, nafislik va yuksak badiiylikni uyg'unlashtirgan ijodkordir. Shuningdek, Eronning mashhur shoiri va fors adabiyoti professori Muhammad Rizo Shafe'iy Kadkanii ham Mushiriyni ijodini chuqur tahlil qilgan olimlardan biridir. U Mushiriyning she'riy muvaffaqiyatini quyidagicha izohlaydi: “Mushiriyni she'riy tilining siri uning soddaligida, muloyimligida va ravonligidadir. Uning tili Sa'diy tiliga yaqin, shu sababli o'quvchilar uchun juda yoqimli.” Kadkanii Mushiriyni asarlarini inson tuyg'ulari bilan bevosita bog'langan she'rlar turiga kiritadi. U shoirni sof his-tuyg'ularning, tinchlik va muhabbatning kuychisi sifatida ko'radi.

Eronning buyuk g'azalnavisi, zamonaviy fors she'riyatining eng yirik vakillaridan biri Simin Behbahoniy Mushiriyni ijodini chuqur qadrlagan. U Mushiriyning she'rlarini shunday tavsiflaydi: “U juda sodda til bilan yozadi, ammo shu sodda tilda yorqin va go'zal tasvirlar yaratadi. U ataylab noodatiy yoki tushunarsiz so'zlardan qochadi, so'z boyligini faqat xalqona, hammaga tanish so'zlar bilan chegaralaydi. Holbuki, bu oson ish emas, cheklangan so'zlar orqali har safar yangi fikrni ifoda etish nihoyatda mushkul. Ammo Mushiriyni bu murakkab ishni osonlik bilan uddalay oladi.”¹² Behbahoniy bu so'zlari bilan Mushiriyning she'riy iste'dodi, badiiy mahorati va xalq qalbiga yaqin tilini alohida ta'kidlaydi.

Faridun Mushiriyni ijodi nafaqat Eron, balki xalqaro adabiy doiralarda ham keng o'rganilgan bo'lib, turli mamlakatlarda uning she'riy merosi falsafiy, psixologik hamda qiyosiy (komparativ) yondashuvlar asosida tahlil etilgan. Avvalo, Eron olimlari tomonidan Mushiriyni ijodining turli qirralari chuqur tadqiq qilingan. Masalan, Mahmud Fo'rutan Mehradoroniyning “Mushiriyni hayoti va ijodida musiqa hamda musiqiy

¹² دسترسي در: 12.11.2025) فریدون مشیری - URL: <https://ketabrah.com/author/13664> فریدون مشیری. کتابها و آثار. کتابراه

asboblarning adabiy va psixologik talqini” nomli maqolasida¹³ shoir she’rlarida tor, chang kabi musiqiy asboblarning ramziy va hissiy ma’nosi yoritilgan. Shuningdek, Hisomiddin Chambatoniy, Milod Karimiyon va Mehdi Suhrobiiy “Romantizm maktabi va Mushiriy she’riyati”¹⁴ nomli tadqiqotida shoir asarlarida romantik yo’nalishning falsafiy va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilgan. Eronlik tadqiqotchilar Abbos Boqinejad, Barot Muhammadiy va Forug’ Jaliliy esa “Mushiriy she’rlarida bag’rikenglik va ta’limiy yondashuv”¹⁵ maqolasida shoir ijodini insonparvarlik va murosa timsoli sifatida o’rganadi. Bundan tashqari, Xudodod Kariminasab “Romantizm maktabi va Mushiriy ijodi”¹⁶ maqolasida romantik unsurlar - muhabbat, tabiat va ruhiy tushkunlik motivlarini tahlil etadi. Mushiriy ijodi Eron adabiyotshunosligida psixologik va arxetipik yo’nalishda ham tahlil qilingan. Fotima Porsoyi Ahmadiy, Mirmahmud Saidvalilu va Nilufar Alioyiy ““Ko’cha” she’rining psixologik va simvolik dekonstruksiya”¹⁷ maqolasida shoir obrazlarini arxetiplar asosida o’rganadi. Shunga yaqin yo’nalishda, Ahmad Lome’i Giv va Vajihye Zamoni Boboguhariy “Mahmud Darvish va Fereyduun Mushiriy ijodida “Anima” arxetipi”¹⁸ maqolasida ayollik ruhi timsoli orqali ikki shoirning poetik qarashlarini taqqoslaydi. Ma’lumot o’rnida, Anima arxitepi Karl Gustav Yungning psixologiya nazariyasiga oid tushunchasi bo’lib, uning fikriga ko’ra, erkakning ijodida Anima (ayol arxetip, obrazi), ayolning ijodida Animus (erkak arxetip, obrazi) nazarda tutiladi. Romantizm va axloqiy qadriyatlar masalasida Nodir Karimiy Rad, Nigin Haydarzoda, Ixlos Veysi va Mas’ud Pokdilning “Romantizm maktabida axloqiy qadriyatlarga sodiqlik (Faridun Mushiriy va Uilyam Bleyk ijodi tahlili bilan)”¹⁹ maqolasi alohida ahamiyatga ega.

Buyuk shoirning ijodi nafaqat Eronda, balki xorijda ham chuqur tadqiq etilgan. Xususan, Buyuk Britaniyada S. Sajjodiy nomli tadqiqotchi o’zining PhD dissertatsiyasida²⁰ Mushiriy ijodini utopiya mavzusi bilan bog’lab, 1941–1988-yillar oralig’idagi fors she’riyatida ideal jamiyat tasavvuri qanday ifodalanganini tahlil etadi.

¹³ فروتن مهرادرانی، م. «موسیقی و آلات موسیقی در زندگی و آثار فریدون مشیری از منظر ادبی و روانشناسی». پژوهش‌های نوین ادبی، شماره ۸، ۲۳۵–۲۱۷ صص ۲۰۲۵.

¹⁴ چمبتانی، حسام الدین؛ کریمیان، میلاد؛ سهرابی، مهدی. «بررسی جلوه‌های مکتب رمانتیسم در آثار فریدون مشیری». مجموعه مقالات ششمین کنفرانس بین‌المللی و هفتمین همایش ملی یافته‌های نوین در مدیریت، روانشناسی و حسابداری، ۲۰۲۳، صص ۶۹۶–۷۰۷.

¹⁵ باقی‌نژاد، عباس؛ محمدی، برات؛ جلیلی، فروغ. «گفت‌و‌مدار و رویکرد تعلیمی در شعر فریدون مشیری». پژوهش‌نامه ادبیات تعلیمی، دوره ۱۴، شماره ۵۶، ۱۴۰۱، صص ۱۸–۱.

¹⁶ جرمی‌نسب، خداداد. «نگاهی به مکتب رمانتیسم و مؤلفان آن با تکیه بر اشعار فریدون مشیری». مطالعات راهبردی علوم انسانی و اسلامی، شماره ۵۱، زمستان ۱۴۰۱، صص ۴۲۱–۴۴۱.

¹⁷ پارسا احمدی، ف.؛ سیدولیلو، م.؛ علیانی، ن. «ساخت‌شنکی ادبی – روانشناختی – کهن‌الگوی – سمبولیستی صور خیال در شعر کوچه فریدون مشیری». مجله مطالعات روانشناسی و علوم تربیتی، دوره ۵، شماره ۵۰، ۱۴۰۲، صص ۱۳۷–۱۵۴.

¹⁸ لامعی گیو، احمد؛ زمانی بابگهری، وجیهه. «بررسی تطبیقی کهن‌الگوی انیما در اشعار محمود درویش و فریدون مشیری». کاوش‌نامه ادبیات تطبیقی، دوره ۱۳، شماره ۲، شماره پیاپی ۵۰، ۱۴۰۲، صص ۱۱۳–۱۴۰.

¹⁹ کریمی‌راد، نادر؛ پاکدل، مسعود؛ حیدرزاده، نگین؛ ویسی، الخاص. «التزام به ارزش‌های اخلاقی در مکتب رمانتیسم (با نگاهی به اشعار فریدون مشیری و ویلیام بلیک)». اخلاق در علوم و فناوری، دوره ۱۸، شماره ۲، تابستان ۱۴۰۲، صص ۱۶–۲۲.

²⁰ Sajjadi S. The image of utopia in modern Persian poetry from 1941 to 1988 [PhD thesis]. – University of St Andrews, 2023. – 226 p.

Turkiyada tadqiqotchi Nurgul Kina Mushiriyni XX asr Eron zamonaviy she'riyati vakili sifatida o'rganib, uning hayoti va ijodidagi ruhiy chuqurlik, his-tuyg'ular va insoniy qadriyatlarni tahlil etgan.²¹

Hindistonda esa Nilufar Arjumandiy va Anita Lashkariyon²² maqolasida Mushiriy va ingliz romantigi Jon Kits ijodini fransuz psixanalitigi Jak Lakan nazariyasi asosida taqqoslab o'rganadilar.

Shuningdek, arab dunyosida ham Mushiriy she'riyati e'tiborga olingan. Mehdi Mumtahn va Laylo Hushkam "Faridun Mushiriy va Nizor Qabboniy she'riyatida romantika"²³ maqolasida ikki shoir ijodidagi umumiy romantik mavzularni qiyosiy tahlil qilganlar.

O'zbekistonda esa sharqshunos olimi Kamola Jumayeva tomonidan Faridun Mushiriy ijodi tahlil qilingan²⁴. Biroq uning ijodi to'liq ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida hali yetarlicha o'rganilmagan.

Umuman olganda, xorijiy va eronlik olimlar Mushiriy ijodini romantizm, musiqiylik, insoniy tuyg'ular, psixologik arxetiplar, ta'limiy bag'rikenglik va komparativ adabiyot doirasida o'rganib, uni nafaqat Eron she'riyati, balki Sharqning zamonaviy poetik tafakkuri timsoli sifatida talqin qilganlar.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Faridun Mushiriy ijodi Sharq adabiyotidagi insoniy qadriyatlar, go'zallik va musiqiy ohang uyg'unligining yorqin ifodasidir. Uning she'rlari nafaqat fors adabiyoti, balki jahon lirikasida ham umuminsoniy badiiy tafakkurning yuksak namunasi sifatida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- | URL: | ریدون | مشیری. | کتاب‌ها | و | آثار. | کتابراه | 1. |
|---|--|---|--|---|-------|---------|----|
| https://ketabrah.com/author/13664- | دسترسی در: 12.11.2025 | فریدون-مشیری | | | | | |
| | فروتن مهرادرانی، م. | «موسیقی و آلات موسیقی در زندگی و آثار فریدون مشیری از منظر ادبی و روانشناسی». | پژوهش‌های نوین ادبی، شماره ۸، ۲۰۲۵، صص ۲۱۷-۲۳۵ | | | | 2. |
| | چمبتانی، حسام الدین؛ کریمیان، میلاد؛ سهرابی، مهدی. | «بررسی جلوه‌های مکتب رمانتیسم در آثار فریدون مشیری». | مجموعه مقالات ششمین کنفرانس بین‌المللی و هفتمین همایش ملی یافته‌های نوین در مدیریت، روانشناسی و حسابداری، ۲۰۲۳، صص ۶۹۶-۷۰۷ | | | | 3. |
| | باقی‌نژاد، عباس؛ محمدی، برات؛ جلیلی، فروغ. | «گفت‌وگو مدارا و رویکرد تعلیمی در شعر فریدون مشیری». | پژوهشنامه ادبیات تعلیمی، دوره ۱۴، شماره ۵۶، ۱۴۰۱، صص ۱-۱۸ | | | | 4. |

²¹ Kina N. 20. Yüzyıl Çağdaş İran Şairi Fereydûn-i Muşîrî // Akademik Tarih ve Düşünce Dergisi. – 2018. – Vol. 5, no. 18. – B. 476–511.

²² Arjumandi N., Lashkariyon A. Two poets, the same desire: A Lacanian Reading of John Keats and Fereydoon Moshiri's Poetry // Asian Journal of Multidisciplinary Studies. – 2014. – Vol. 2, No. 9. – B. 53–81.

²³ Mumtahn M., Hushkam L. Romanticism in the Poetry of Fereydoon Moshiri and Nizar Qabbani // Journal of Comparative Literature Studies. – 2013. No. 27. – B. 53–81.

²⁴ Jumayeva K. – Faridun Mushiriy. Risola – T.: ToshDSHU, 2019.

5. چریمی‌نسب، خداداد. «نگاهی به مکتب رمانتیسم و مؤلفان آن با تکیه بر اشعار فریدون مشیری». مطالعات راهبردی علوم انسانی و اسلامی، شماره ۵۱، زمستان ۱۴۰۱، صص ۴۲۱-۴۴۱.
6. پارسا احمدی، ف.؛ سیدولیلو، م.؛ علیائی، ن. «ساخت‌شکنی ادبی – روانشناختی – کهن‌الگویی – سمبولیستی صور خیال در شعر کوچه فریدون مشیری». مجله مطالعات روانشناسی و علوم تربیتی، دوره ۵، شماره ۵۰، ۱۴۰۲، صص ۱۳۷-۱۵۴.
7. لامعی گیو، احمد؛ زمانی بابگهری، وجیهه. «بررسی تطبیقی کهن‌الگوی آنیما در اشعار محمود درویش و فریدون مشیری». کاوش‌نامه ادبیات تطبیقی، دوره ۱۳، شماره ۲، شماره پیاپی ۵۰، ۱۴۰۲، صص ۱۱۳-۱۴۰.
8. کریمی‌راد، نادر؛ پاکدل، مسعود؛ حیدرزاده، نگین؛ ویسی، الخاص. «التزام به ارزش‌های اخلاقی در مکتب رمانتیسم (با نگاهی به اشعار فریدون مشیری و ویلیام بلیک)». اخلاق در علوم و فناوری، دوره ۱۸، شماره ۲، تابستان ۱۴۰۲، صص ۱۶-۲۲.
9. Sajjadi S. The image of utopia in modern Persian poetry from 1941 to 1988 [PhD thesis]. – University of St Andrews, 2023. – 226 p.
10. Kına N. 20. Yüzyıl Çağdaş İran Şairi Fereydûn-i Muşîrî // Akademik Tarih ve Düşünce Dergisi. – 2018. – Vol. 5, no. 18. – B. 476–511.
11. Arjumandi N., Lashkariyon A. Two poets, the same desire: A Lacanian Reading of John Keats and Fereydoon Moshiri's Poetry // Asian Journal of Multidisciplinary Studies. – 2014. – Vol. 2, No. 9. – B. 53–81.
12. Mumtahn M., Hushkam L. Romanticism in the Poetry of Fereydoon Moshiri and Nizar Qabbani // Journal of Comparative Literature Studies. – 2013. No. 27. – B. 53–81.
13. Jumayeva K. – Faridun Mushiriy. Risola – T.: ToshDSHU, 2019.